O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O’ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AHMEDOVA F.M.

TIBBIYOT SOTSIOLOGIYASI

DARSLIK

60311000- Sotsiologiya ta’lim yo‘nalishi uchun

TOSHKENT-2025

UO’K: 316.3:614
KBK:

Ahmedova F.M. “Tibbiyot sotsiologiyasi”. Darslik –T.: “Universitet”, 2025.,222 bet

Darslik Oliy ta’lim Davlat standarti asosida fanning namunaviy o’quv dasturiga mos ravishda 60311000-Sotsiologiya ta’lim yo’nalishining bakalavr bosqichi talabalari uchun tayyorlangan. O'quv qo'llanma magistrlar, doktorantlar va professor-o'qituvchilar hamda “Tibbiyot sotsiologiyasi” fanini mustaqil o’ganmoqchi bo’lgan o’quvchilar foydalanishlsri mumkin. Mazkur darslik “Tibbiyot sotsiologiyasi” fanidan mavzularga oid asosiy savollar tayanch tushunchalar, Darslikda fanga ta’luqli masalalar 12ta mavzuga bo‘lib talqin qilingan, har bir mavzuga tayanch tushunchalar, nazariy matn, mustaqil o‘zlashtirish uchun savollar, testlar berilgan. Darslik O’zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya kafedrasida tayyorlangan.

Mas‘ul muharrir:
Bekmurodov M.B.– professor, sotsiologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:
Zaitov E.X. – dotsent, sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Kadirova X.B.– dotsent, sotsiologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur darslik Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o’quv-uslubiy Kengashining 2025 yil _____dagi __-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

Annotatsiya

Ushbu darslik “Tibbiyot sotsiologiyasi” fanidan 60311000 – “Sosiologiya” yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tibbiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy asoslari, tibbiy xizmatdan foydalanish madaniyati va aholining ijtimoiy salomatligi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Darslikda tibbiyot sotsiologiyasining ilmiy-nazariy asoslari, uning fanlar tizimidagi o‘rni, asosiy tushuncha va yo‘nalishlari keng yoritilgan. Shuningdek, tibbiy muassasalarning ijtimoiy faoliyati, bemor va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi munosabatlar, bioetika, yotrog‘eniya, nogironlik, pandemiyalar va tibbiy xizmatga ishonch kabi mavzular atroflicha tahlil qilingan. Har bir mavzu so‘ngida kalit so‘zlar, nazorat savollari, mustaqil ish va test topshiriqlari keltirilgan bo‘lib, ular talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslik modul tizimi asosida tuzilgan bo‘lib, sog‘liqni saqlash sohasini sotsiologik tahlil etishga qiziquvchi talabalar, magistrantlar, soha mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Аннотация

Данный учебник предназначен для студентов бакалавриата по направлению 60311000 – «Социология» и посвящён изучению социальных аспектов здравоохранения, социальным отношениям в медицинской сфере, а также социокультурным факторам, влияющим на состояние здоровья населения. В учебнике подробно изложены теоретико-методологические основы медицинской социологии, её место в системе социальных наук, ключевые понятия и основные направления. Особое внимание уделено анализу деятельности медицинских учреждений, отношениям между пациентами и медицинскими работниками, вопросам биоэтики, ятрогении, инвалидности, пандемий и доверия к медицинским службам. Каждая тема сопровождается ключевыми словами, контрольными вопросами, заданиями для самостоятельной работы и тестами, что способствует формированию аналитического мышления студентов и закреплению полученных знаний. Учебник составлен в соответствии с модульной системой и рекомендован для студентов, магистрантов, исследователей и специалистов, интересующихся социологическим анализом в области здравоохранения.

Annotation

This textbook is intended for undergraduate students majoring in 60311000 – “Sociology” and is devoted to the study of social aspects of healthcare, social relations in the medical field, and the sociocultural factors influencing public health. The textbook presents the theoretical and methodological foundations of medical sociology, its place in the system of social sciences, key concepts, and primary areas of research. Special attention is given to the analysis of medical institutions’ activities, relationships between patients and healthcare providers, as well as topics such as bioethics, iatrogenesis, disability, pandemics, and public trust in medical services. Each chapter includes keywords, review questions, independent study assignments, and test tasks to help students consolidate their knowledge and develop critical thinking skills. The textbook is designed in accordance with the modular system and is recommended for students, graduate students, researchers, and professionals interested in sociological analysis in the field of healthcare.

SO‘Z BOSHI

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, tibbiy muassasalarni samarali boshqarish, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va tibbiyot xodimlarining malakasini yuksaltirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda tibbiy xizmat faqat tibbiy yondashuv emas, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy oqibatlarini ham hisobga olish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, tibbiyot sotsiologiyasi fanining ahamiyati ortib bormoqda. Chunki sog‘liqni saqlash tizimida faqat tibbiy muammolar emas, balki ijtimoiy tafovutlar, sog‘liqka ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, tibbiy institutlar va aholi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi tengsizlik, bioetik muammolar kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Tibbiyot sotsiologiyasi ana shunday murakkab va dolzarb masalalarni ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qiladi.

Qo‘lingizdagi ushbu darslik 60311000 – “Sotsiologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, modul tizimi asosida ishlab chiqilgan. Unda tibbiyot sotsiologiyasining ilmiy-nazariy asoslari, tadqiqot ob’ekt va predmeti, sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, tibbiy xizmatlardan foydalanish madaniyati, tibbiy kadrlar va bemorlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar, bioetika va yatrog‘eniya, invalidlikning ijtimoiy jihatlari, pandemiyalar va ommaviy kasalliklarning ijtimoiy oqibatlari, shuningdek tibbiyotda ishonch va muomala madaniyati kabi mavzular qamrab olingan.

Darslikda har bir mavzu mukammal yoritilib, unda nazariy tushunchalar, ilmiy tahlillar, zamonaviy tadqiqot natijalari hamda amaliy misollar bilan boyitilgan. Darslikni tayyorlashda tibbiyot sotsiologiyasi bo‘yicha zamonaviy milliy va xorijiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tibbiy islohotlardan keng foydalanildi.

Ushbu darslik sotsiologiya yo‘nalishi talabalari uchun asosiy o‘quv manba sifatidagina emas, balki tibbiyot va ijtimoiy fanlar kesishmasida tadqiqot olib borayotgan magistrantlar, pedagoglar, soha mutaxassislari uchun ham qo‘llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Umid qilamizki, ushbu darslik Siz, aziz o‘quvchilarning ilmga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi, sog‘liqni saqlash sohasidagi ijtimoiy muammolarga ilmiy yondashish ko‘nikmalariga ega bo‘lishingizga xizmat qiladi.

Hurmat bilan,
Muallif